

MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARGA BUNYODKORLIK
G'OYALARINI SINGDIRISHDA AXBOROTLASHGAN TA'LIMNING
AHAMİYATI
Katta o'qituvchi, O'ralov A. A.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab yoshidagi o'quvchilarda bunyodkorlik g'oyalarini singdirishda axborotlashgan ta'larning ahamiyati haqida fikrlar bildirilgan bundan tashqari yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, keng dunyo qarashli, ezgu g'oyalarga asoslangan, intellectual salohiyatga ega bo'lgan barkamol yoshlarga tarbiya berish haqidagi fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Yosh o'quvchilar, bunyodkorlik g'oyalari, axborotlashgan ta'limgan tizimi, intellektual salohiyat.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab barcha sohalarda bo'lgani kabi mafkuraviy va ma'naviy hayotda ham o'zgarishlar ro'y bera boshladи. Jumladan, ta'limgan – tarbiya bilan shug'ullanadigan pedagogika fani oldiga ham yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarashli va ezgu g'oyalarga asoslangan e'tiqodini shakillantirish, intellectual salohiyatga ega bo'lgan barkamol yoshlarga tarbiya berish kabi vazifalarni yoqlaydi.

Hozirgi kunning talabi yoshlarni hayotga har tomonlama tayyor qilib berishdan iboratdir. Buning uchun birinchi navbatda, yuksak darajada bilimga ega bo'lish, ikkinchi navbatda, g'oyaviy jihatidan savodxon bo'lish, uchinchidan, bunyodkorlik g'oyalarini egallagan bo'lishi, to'rtinchidan, vatanga muhabbat tuyg'ularini shakillantirish, beshinchidan, ma'naviyatli, ma'rifatli shaxs sifatida shakillangan bo'lishi lozim.

Bugungi kunda har bir sohadagi tub o'zgarishlarni va uning talablarini e'tiborga olib axborotlashgan ta'limgan tizimining maktab yoshidagi o'quvchilar tarbiyasidagi ahamiyatini, intellectual salohiyatga ega bo'lgan barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyatini, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga bunyodkorlik g'oyalarini singdirish jarayonida axborot va komunnikatsiya texnologiyalari

imkoniyatlaridan foydalanish masalasi navbatdagi hal etilishi lozim bo'lgan masala hisoblanadi.

Ta'lismuassasalarida bugungi kunda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jadal suratlarda amalga oshmoqda. Kompyuter, sinf va sinfdan tashqari o'quv ishlarini bajaruvchi qulay qurilma hisoblanadi. Bu esa, maktab ta'limidagi barcha fanlarga ta'lismtexnologiyalarini qayta ko'rib chiqish zarurligini keltirib chiqarmoqda. Hozirgi globallashuv sharoitida bunyodkorlik g'oyalarini targ'ib qilishda axborotlashgan ta'lismuhitini yaratish orqali samarali natijalarga erishiladi.

Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari ongi va qalbiga bunyodkorlik g'oyalarini singdirishning vosita va yo'llari hamda axborotli ta'minoti haqidagi muammoni yechishda quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

- bunyodkorlik g'oyasining mazmun – mohiyatini ifodalaydigan tushinchalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib tizimlashtiriladi;
- bunyodkorlik tushinchasining tarixiy asosini tashkil etgan milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'rganish talab etiladi;
- ma'lumotlarni axborotga aylantirish me'zoni ishlab chiqiladi;
- bunyodkor va vayronkor g'oyalar tariflari to'g'risida tushincha hosil qilinadi va ular orasidagi farqlar haqida mакtab yoshidagi o'quvchilarda shakillanadigan tushinchalar, burchlar, xislatlar yagona tizimga keltiriladi;
- mакtab yoshidagi o'quvchilar kompyuterdan foydalanishni o'rganishi natijasida buyodkorlik tushinchasi to'g'risida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Shu yo'sinda olib borilgan ta'lism-tarbiya ishlari natijasida barkamol avlodga qo'yilgan talab bilan tarbiyalangan shahsdagi intellectual salohiyati taqqoslanadi. Natijada ushbu tizim mакtab yoshidagi o'quvchilar qalbi va ongiga bunyodkor g'oya tushinchalari, uniug mazmun- mohiyati, bunyodkorlikning istiqbollari, vayronkorlikning oqibatlari to'g'risidagi bilimlarini boyitishda mustahkam vosita bo'ladi. Xalqimiz tarixida bunyodkor g'oyalar ko'p bo'lgan. Sohibqiron Amir Temur bobomizning yurtni birlashtirib, kuchli markazlashgan davlat barpo etish va

mamlakatni obod qilishda bunyodkor g'oyalar asos bo'lganligini kompyuter ekranidagi lavhalarni ko'rsatish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida bunyodkorlikka chorlovchi g'oyalarning mujassamligini kuzatish mumkin. Xalqimizga xos bo'lgan bunyodkorlik ishlari mustaqillika erishganimizdan so'ng yanada yorqinroq namoyon bo'ldi. Ayniqsa, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov istiqlolning dastlabki yillarida "Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang" degan bunyodkor g'oyani ilgari surishi xalqimizning bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish borasidagi yaratuvchanligiga turtki bo'ldi. Buning natijasida mustaqillik yillarida Toshkentda barpo etilgan Temuriylar tarixi muzeyi, Oliy Majlis binosi, Xotira maydoni majmuasi, Motrudiylar, Amir Temur, Alisher Navoiy yodgorliklari, Buxoro, Xiva, Farg'ona, Andijon, Marg'ilon, Termiz kabi shaharlarda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarini kompyuter ekranida joylashtirilgan lavhalar o'quvchilarda bu aziz va go'zal vatanimizga yuksak e'tiqod, Vatanga sadoqat barchamizning farzadlik burchimiz ekanligini, O'zbekiston deb ataluvchi yurtimizning fidoiy inson bo'lib yetishishi uchun g'ururlanish tuyg'usini paydo qiladi. Shu bilan birga bunyodkor g'oyaning tarifi bilan tanishib, mazmunini anglay boshlaydi. Bunyodkor g'oya insonni ulug'lashi, uning kuch qudrati va salohiyatini oshirib, xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etishi, o'zida mehnat, taraqqiyot, do'stlik,adolat, halollik kabi ezgu maqsadlar mujassam etishini bilib oladi. Kompyuter ekranidagi O'zbekiston bayrog'ining hilpirab turishi, birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning bunyodkorlikka chorlovchi nutqlari va amalga oshirgan ishlarini ko'rgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida bunyodkorlik g'oyalaring shakillanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Bunyodkor g'oyaning asosini tashkil etadigan xalqparvarlik, tinchlik, ozodlik, hurfikrlilik, do'stlik, bag'rikenglik, taraqqiyot kabi g'oyalarning nimalarda aks etishi bilan tanishadi. Shuningdek, bunyodkor g'oyaga zid bo'lgan vayronkor g'oyaning buzg'unchilik, turli xil jinoyatlarga yo'naltiradigan, insoniyat uchun faqat kulfat keltirishini va ularning asosini aqidaparastlik, diniy fonatizm, terrorizm, bosqinchilik, fashizm, qo'poruvchilik, shovinizm, jaholatparastlik

kabilar tashkil etishini kompyuter ekranida aks ettirilgan fotorasmlar, videolavhalar orqali nimalarga qodir ekanligini tushinib yetadilar.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, bunyodkorlik tushinchalarini o'rganishda axborot texnologiyalarini qo'llash istiqbolli natija beradi. Bunday yo'l bilan boshlang'ich sinf o'quvchilari boy, ma'naviy me'roslarni o'zlashtiradi, ularning bugungi kundagi ahamiyati bilan yangidan tanishadi va natijada bunyodkor g'oya tushinchalariga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi. Shu sababli ularda milliy ong, milliy g'urur, milliy iftixor, milliy tafakkur tuyg'ulari shakillanadi. Kompyuter xotirasiga joylashtirilgan ma'lumotlar muloqatli ishchi dastur orqali yoshlarda yuqorida sanab o'tilgan tuyg'ularni shakillantirib qolmasdan o'zbek farzandi degan tushinchaning g'ururli ekanligi singdiriladi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Endigi vazifamiz shundan iboratki, milliy istiqlol g'oyasi tushichalari asosida keng jamoatchilik, ziyoililarimiz, ilm-fan va madaniyat namoyondalari, avvalo, ma'naviy-ma'rifiy soha xodimlari milliy mafkurani takomillashtirish va uning asosiy tamoyillarini odamlar ongi va qalbiga singdirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishlari va tashviqot ishlarining yangi usul va vositalaridan foydalanishlari zarur".

Adabiyotlar

- 1.Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T: Ma'naviyat. 2008.
- 2.To'raqulov O. X. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitini shakillantirish. Kasb-hunar ta'limi. – T: 2008.
- 3.G'aniyev, O. (2021). BOLALARNI OILADA IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1401>
- 4.KUSHVAKTOV, N., & ISOKULOV, M. The Role of a Creative Approach to the Lesson in Educating High School Students in the Spirit of Enlightenment Against Ignorance. JournalNX, 6(12), 18-21.

- 5.Мамадоли, И. (2021, январь). АБДУЛЛА АВЛАНИЙ ИДЕИ ПРОСВЕЩЕНИЯ ПРОТИВ НЕВЕЖЕСТВА. В Евроазиатских конференциях (Т. 1, № 1, с. 480-482).
- 6.Dilshod, Y. (2020). Жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришда педагогик хурфикликнинг роли. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 7.Dilshod, Y. (2020). Талабаларда педагогик хурфикликни ривожлантиришда тарихий асослардан фойдаланиш. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 8.Rakhmatovich, Y. D. (2019). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES AND FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL FREETHINKING IN STUDENTS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
- 9.Dilshod, Y. (2020). ПЕДАГОГИК ХУРФИКЛИКНИНГ ТАЛАБАЛАР ФАОЛИЯТИДАГИ РОЛИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 10.Dilshod, Y. (2020). Formation Of High Spiritual Qualities In Youth. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 11.Dilshod, Y. (2020). Негативное педагогическое влияние социальной среды на личность подростка. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 12.Dilshod, Y. (2020). Формирование педагогического свободомыслия как важная педагогическая проблема. Архив Научных Публикаций JSPI.